

NODAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARI TALABALARI O'QUV FAOLIYATIGA MOSLASHISHINI O'RGANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Razzoqova Shaxnoza Jo'rayevna

Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti o'qituvchisi
(99891 407-66-65)

Annotatsiya: maqolada talabalarning o'quv jarayoniga moslashuvchanligining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi ijtimoiy –psixologik jihatdan yondashib tahlil etib berilgan.

Kalit so'zlar: o'quv faoliyati, globallashuv, integratsiya, psixologik omillar, o'quv motivi, beqaror holatlar

Annotation: the article is analyzed by taking a socio –psychological approach to the specifics of students' adaptability to the educational process.

Keywords: educational activity, globalization, integration, psychological factors, educational motivation, unstable states.

KIRISH

Bugungi globallashuv va integratsiya jarayonida nodavlat ta'lim tashkilotlari talabalarida o'quv faoliyatiga moslashish motivatsiyasining shakllanishiga xizmat qiluvchi omillarni aniqlash tadqiq qilish va shu orqali ular bilan olib boriladigan ta'lim tarbiya ishlarini tashkil etish, ta'lim samaradorligiga aniqrog'i, talaba shaxsiga va uning ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashga ijobiy ta'sir etadi. Chunki, har bir talaba shaxsidagi o'quv faoliyatiga nisbatan kechayotgan ichki va tashqi munosabat motivatsiyasini shakllantiruvchi jihatlarni tahlil qilish orqaligina talaba shaxsiga, uning faoliyatiga to'g'ri baho berish mumkin, deb o'ylaymiz. Shu nuqtai nazardan, Respublikamizdagi qator nodavlat ta'lim tashkilotlarining talabalar faoliyati chuqur o'rganildi va tegishli tadqiqot talablari asosida tadqiq qilindi. Maqolaning asosiy maqsadi va vazifalari yuqorida qayd etilgan. Maqola vazifalaridan kelib chiqib, mazkur maqolada talabalarning nodavlat ta'lim tashkilotiga va o'quv faoliyatiga moslashish motivatsiyasining bevosita shakllanish jarayoni bilan bog'liq ijtimoiy – psixologik omillarni o'rganish hamda maxsus yo'naltirilgan metodikalar yordamida aniqlash masalasi qo'yildi.

ASOSIY QISM

O'rganish davomida talabalarning o'quv faoliyatiga moslashishi hamda unga ta'sir etuvchi omillar ham aniqlandi va ularni quyidagicha jadval ko'rinishda vizualizatsiyalashga muvofiq bo'ldik.

Maqolamizda dastavval N.G.Luskanova tomonidan taklif etilgan «O'quv motivini baholash» metodikasidan foydalandik. Bu so'rovnomada asosiy e'tibor talabalarning o'quv motivatsiyasini shakllanish bosqichlariga qaratildi. Talabalarning nodavlat ta'lim

tashkilotiga psixologik moslashishida ularning o‘quv faoliyatiga munosabatini aniqlash muhim hisoblanadi. Dastlab mazkur metodika bo‘yicha gender jihatlarni ko‘rib chiqdik.

1-jadval

O‘quv motivatsiyasini baholashning gender natijalari

Shkalalar	O‘rtacha qiymati		t	p
	Qizlarda	Yigitlarda		
O‘quv motivatsiyasi yuqori	8,3	6,3	-2,41	0,05
O‘quv motivatsiyasi o‘rtacha	7,1	6,8	-2,04	0,21
Ta‘lim tashkilotiga munosabat ijobiy	6,6	6,9	-1,01	0,19
O‘quv motivatsiyasi past	6,1	7,6	-2,28	0,05
Ta‘lim tashkilotiga munosabat salbiy	6,1	7,0	-2,52	0,05

N.G.Luskanova tomonidan ishlab chiqilgan «O‘quv motivini baholash» metodikasi bo‘yicha birinchi kursda tahsil olayotgan yigitlarda hamda qizlarda natijalaridan ma’lum bir statistik farqlar qayd qilindi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra “o‘quv motivatsiyasi yuqori” ($t=-2,41$; $p\leq 0,05$), “o‘quv motivatsiyasi past ($t=-2,28$; $p\leq 0,05$)” hamda “Ta‘lim tashkilotiga munosabat salbiy” ($t=-2,52$; $p\leq 0,05$) omillarida ahamiyatli darajadagi farqlar kuzatildi.

Birinchi navbatda, “o‘quv motivatsiyasi past” mezoniga murojaat qildik. Yigitlarda ushbu omil bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich ya’ni, 7,6 bo‘lsa, qizlarda 6,1 ni tashkil etdi. O‘rganilgan yigitlarda maktabga nisbatan noadekvat munosabat, ijtimoiy identifikatsiyaning noto‘g‘ri shakllanganligi, qo‘zg‘aluvchan, sabrsiz va biroz ma’suliyatsiz ekanliklari aniqlandi. Bunga sabab, ularning ba’zan o‘rtoqlari va boshqa insonlar bilan notipik vaziyatlarda yanglishishlari mumkinligi, o‘z rejalarini amalga oshirishdagi beqaror holatlarning mavjudligida bo‘lishi mumkin. Qizlar esa yigitlarga nisbatan ijtimoiy adaptatsiya yaxshi shakllangan va vaziyatga moslashuvchan, shuningdek, har bir ishga ma’suliyat bilan yondashishlari aniqlandi. Bu esa, o‘z navbatida qizlarning yigitlarga nisbatan irodali, emotsional jihatdan barqaror, chidamli ekanliklari hamda har bir ishga ma’suliyat bilan yondashishlarini ko‘rsatadi.

Keyingi “o‘quv motivatsiyasi yuqori” omil bo‘lib bunda yigitlar 6,3 qizlar esa 8,3 o‘rtacha qiymatni ko‘rsatdi. Mazkur omil qizlarda yuqori natijani qayd etdi. Buni shunday izohlash mumkinki, yigitlarda ayrim holatlarda ruhiy tushkunlik, beqarorlik, ba’zi hollarda esa, o‘z iroda kuchiga ishonmaslik va ruhiy jihatdan pessimistik holatlari ko‘zga tashlanadi. Bunday shaxslararo munosabatlar ularda har doim ham ijtimoiy jihatdan faol emasliklari hamda o‘z fikrlarini doimo to‘g‘ri va ochiq ifodalay olmasligidan dalolat beradi. Qizlarda esa, bu ko‘rsatkich eng yuqori natijani tashkil etdi. Demak, qizlar yigitlardan ko‘ra, ancha faol va pozitiv xususiyatlarga ega. Bu esa, o‘z navbatida ularning nodavlat ta‘lim tashkilotlariga hamda o‘quv faoliyati uchun ham muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

Ta’lim tashkilotiga munosabat salbiy omili yigitlarda nisbatan yuqori natijani qayd etdi. Bu omil esa ularni yangi muhitga, shaxslararo munosabatlardagi vaziyatlarni tahlil eta olishga, ijtimoiy persepsiyani va adekvat tushunish qobiliyatini rivojlantirish hamda kamchiliklarni bartaraf etishga moyil ekanliklarini ko‘rsatmoqda. Qizlarda esa, o‘quv faoliyatiga hamda nodavlat ta’lim tashkilotlari hayotiga kirishishda har qanday muammolarni bartaraf etishga moyil va har qanday holatda ham intiluvchan, vaziyatlarni adekvat baholay olishlari bilan xarakterlanadi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘quv faoliyatiga moslashish jarayoni qizlarda yigitlarga nisbatan ancha yaxshiroq ekan. Sababi, yigitlardagi ijtimoiylashish jarayoni, atrof muhitga bo‘lgan adekvat munosabatlari ularni ta’lim tashkilotlari hayotiga moslashishida ma’lum bir qiyinchiliklarni keltirib chiqar ekan.

Tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida “Nodavlat ta’lim tashkilotlari talabalarining o‘quv faoliyatiga moslashuv motivatsiyani o‘rganish” so‘rovnomasi orqali olingan natijalar tahliliga o‘tamiz. Mazkur metodikani birinchi va uchinchi bosqichlar kesimida tahlil qildik.

2-jadval

“Nodavlat ta’lim tashkilotlari talabalarining o‘quv faoliyatiga moslashuv motivatsiyani o‘rganish” natijalari (IPS)

Shkalalar	O‘rtacha qiymati		t	p
	1-bosqich	3- bosqich		
Kognitiv komponent	2,4	4,1	-3,47	0,05
Hissiy – irodaviy komponent	4,2	2,9	-2,78	0,05
Baholash komponentni	2,6	3,8	-2,58	0,05

Nodavlat ta’lim tashkilotlari talabalarining o‘quv faoliyatiga moslashuv motivatsiyani o‘rganish o‘rganish so‘rovnomasi orqali natijalar tahliliga o‘tadigan bo‘lsak, “kognitiv komponent” ($t=-3,47$; $p\leq 0,05$) “hissiy – irodaviy komponent” ($t=-2,78$; $p\leq 0,05$) va “baholash komponenti” ($t=-2,58$; $p\leq 0,05$) omillarda statistik farqlar aniqlandi. Dastlabki “kognitiv komponent” omili 3-bosqich talabalarida yuqori natijani ko‘rsatdi. Demak 3-bosqich talabalarida bilishga va o‘z bilimlarini dars jarayonida tadbiq etishga asoslangan topshiriqlarni bajarishga bo‘lgan barqaror intilishlarining namoyon etilishini hamda talabalarida ko‘proq intellektual salohiyatni talab qiluvchi o‘quv topshiriqlarini bajarishga bo‘lgan xayrixohlikning mavjudligini nisbatan yuqori darajada ekan.

Navbatdagi “hissiy – irodaviy komponent” omilida esa aksincha, 1-bosqich talabalarida yuqori natija qayd etildi. Mazkur holat o‘rta maxsus ta’lim tashkilotidan kelgan o‘quvchilarda o‘quv jarayoniga mas’uliyat bilan yondashish, qat’iylik asosida ishga zo‘r ishtiyoq bilan kirishish, mavjud qiyinchiliklarni yengib o‘tishga va kattalar oldida alohida tahsinga sazovor bo‘lish uchun astoydil xarakat qilish ishtiyoqining barqarorligi kabi holatlar yuqoriligi bilan izohlanadi.

So‘ngi “baholash komponentni” 3-bosqich talabalarida yuqori natijani ko‘rsatdi. Bu esa yuqori bosqich talabalarida o‘quv faoliyatiga va o‘z –o‘ziga talabchanlik, o‘z – o‘zini

idora qilish va rivojlantirish nuqtai nazaridan o‘z faoliyatiga baho bera olish, o‘quv topshiriqlarining natijalariga baho berish, o‘z-o‘zini adekvat baholashga bo‘lgan ishtiyoqning yaqqol namoyon etilishi bilan belgilanadi.

Nodavlat ta‘lim tashkilotlari talabalarida o‘quv jarayoniga moslashish motivatsiyasi tahlillari shuni ko‘rsatdiki, talabalarining ta‘lim tashkiloti faoliyati bilan bog‘liq har bir harakatlari zahirida o‘quv faolligi va uni bevosita ta‘minlashga xizmat qiluvchi omillar yotadi. Chunki, o‘quv faolligining namoyon etilishi bir tomondan o‘quv jarayonining muvaffaqiyatli tashkil etilishiga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa talaba shaxsida tarkib topayotgan o‘quv komponentlari – “kognitiv”, “hissiy-irodaviy” hamda “baholash” mezonlariga ham ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Zero, har bir o‘quv komponentining talaba shaxsida yetarli darajada tarkib topishi o‘quv faolligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Ta‘kidlangan har bir komponentni ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida o‘rganish va tadqiq qilish haqida yuqorida batafsil ma‘lumot berilgan edi. Buning uchun avvalo shuni ta‘kidlash joizki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta‘lim tashkilotiga kelishi va o‘z do‘stlari bilan muloqot qilishi, o‘quv qurollaridan foydalanib u yoki bu topshiriqlarni shunchaki bajarishi bu hali faollik yoxud faol – ijobiy munosabatni belgilamaydi. Qolaversa, yuqoridagi metodika tahlillari shuni ko‘rsatayotgiki talabaning har qanday o‘quv topshiriqlarini bajarishi uchun unda ma‘lum ko‘nikmalar bilan birga uning faoliyatida psixologlar tomonidan qayd etilgan (A.K.Markova, L.M.Fridman, A.V.Zaxarova) o‘quv – psixologik komponentlari ham (kognitiv, hissiy-irodaviy, baholash) bevosita ishtirok etishi shart. Mazkur komponentlar yetarli darajada shakllanmas ekan, talaba o‘quv faoliyatida shunchaki “indifferent” munosabatda bo‘laveradi. Lekin bu munosabat mezonni ta‘lim samaradorligiga, qolaversa talaba shaxsining ijtimoiy – psixologik taraqqiyotiga yetarli darajada ijobiy ta‘sir etmasligi mumkin. Shuning uchun xar bir nodavlat ta‘lim tashkiloti o‘qituvchisi talaba shaxsida shakllanayotgan mazkur motivatsiya jarayoniga jiddiy e‘tiborni qaratishi lozim, deb o‘ylaymiz.

XULOSA

Demak, yuqorida keltirilgan barcha ma‘lumotlar ijtimoiy-psixologiya uchun muhim bo‘lgan o‘quv faolligi va uning talaba shaxsidagi motivatsion imkoniyatlarining nechog‘lik namoyon etilishi bilan bog‘liq psixologik omillar haqida tegishli tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayni paytda, har bir keltirilgan empirik ma‘lumot zahirida nodavlat ta‘lim tashkiloti talabalarini uchun xarakterli bo‘lgan o‘ziga xos ijtimoiy psixologik qonuniyatlar yotadi. Mazkur maqolada keltirilgan ashyoviy dalillar quyidagicha ijtimoiy psixologik mushohadalar yuritish imkonini beradi:

1. Nodavlat ta‘lim tashkilotida o‘quv faolligining ta‘minlanishi o‘ziga xos ierarxik tizimga ega bo‘lgan kognitiv, hissiy-irodaviy, baholash komponentlarining talaba shaxsidagi motivatsion tizimga aylanishi bilan yaqqol ifoda etiladi va har bir o‘quv komponenti turli xil darajalarga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

2. O‘quv faolligi komponentlarining namoyon etilishi, asosan o‘quv materialini o‘zlashtirish va bu jarayonda astoyidil kirishgan holda o‘zini talaba sifatida his etish, o‘z-o‘zini adekvat baholash, o‘zini-o‘zi boshqarish, o‘z-o‘zini faoliyatga safarbar qilish kabi

xislatlar bilan bevosita bog‘liq ekanligi ma’lum bo‘ldi. O‘rganilgan har bir komponent, talaba shaxsining ijtimoiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Nazarova, M. (2021). BOSHLANG‘ ICH TA ‘LIM O‘ QUVCHILARINING PSIXIK TARAQQIYOTIDA INTEGRATSIYAVIY-INNOVATSION YONDASHUVLAR AHAMIYATI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7).
2. Baxriyeva, N. (2020). СОЦИАЛЬНО-ЭМОЦИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).
3. Nematova, R. R., & Narziyev, B. N. (2022). THE ROLE OF NATIONAL GAMES IN INCREASING THE PHYSICAL ACTIVITY OF PRESCHOOL CHILDREN. Research Jet Journal of Analysis and Inventions, 3(1), 6-11.
4. Izatovna, T. S. (2022). Theoretical and Scientific Approach to the Psychology of Adolescent Twins in the Process of Social Adaptation. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 3(2), 51-57.